

7-mavzu. Qishloq xo'jaligida mehnatni meyorlash tamoyillari.

Reja:

1. Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnatni meyorlash. Mehnatni tashkil etishning asosiy tamoyillari.
2. Mehnat meyorlariga ta'sir etuvchi omillar va ularning samaradorligini aniqlash usuli.
3. Traktorlarning tortish kuchiga agregatlarni qarshiligi va uni aniqlash uslubi.
4. Ishlab chiqarish meyorini va yoqilgi meyorini aniqlash.
5. Traktor agrigatining xar-xil tezlikda xarakatlanish davrida unga tirkaladigan ish organlarining maqbul sonini aniqlash tartibi.

Tayanch iboralar: ish joyi, doimiy omillar, o'zgaruvchan omillar, mehnat, me'yor, mehnat me'yorini, ishlab chiqarish normasi, vaqt normasi, mehnat normativlari, mehnat jarayoni.

Foydalangan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». - Toshkent: ToshDAU taxririyyat- nashriyyot bo'limi, 2005. - 508 b.
2. Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma'ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.
3. Samatov G.A., Rustamova I.B., Gaybullayev O.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy ko'llanma. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat- nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.
4. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. - Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2004y.
5. Xakimov.R, Yusupov.E.D. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. Toshkent- 2004 y.

Xorijiy adabiyotlar:

6. Agrarmanagement Jens Pape, Clemens Morath, Reiner doluschitz ISBN-10:3-8252-3587-4, EAN:978382523587
7. Barrick, R. K. Harmon, H. L. Animal Production and Management Ed: Gregg Division McGraw-Hill (1988-02-01) ISBN 10: 007003852X / ISBN 13: 9780070038523
8. Connor, D. J.; Loomis, R.S.; Cassman, K.G. 2011. Grop Ecology. Productiviti and Management in Agricultural Systems. University Press ISBN: 9780521744034.
9. Modernes Agrarmanagement: Betriebswirtschaftliche Analyse-und Planungsvefahren MuBhoff, Hirschauer (2013) 3. Auflage, Vahlen-Verlag, Munchen.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 oktyabr 2012 yildagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4478- sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 sentyabrda Namangan viloyatiga 29-30 sentyabr kunlari Farg'ona viloyatiga tashriflari chog'ida bergan topshiriqlari bo'yicha chora - tadbirlar.
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: «O'zbekiston

Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004. - 346 bet.

4.Komiljonov B.I. Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2007.

5.Samatov G'.A, Yodgorov J.Yo, Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari (fermerlar tayyorlash va qayta

tayyorlash bo'yicha biznes maktablar tinglovchilari uchun qo'llanma).-T.:ToshDAU taxririya 2004y.

6.Umurzoqov U.P. va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya",

2007. - 276 b.

7.Farmonov T.H. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 144 s.

8.Shakirov F.K., Korolev Yu.B., Pastuxov A.K. i dr. Organizatsiya sel'skoxo'zaystvennogo proizvodstva i menedjment: uchebnik dlya vuzov. - M.: Kolos OOO, 2008. - 607 s.

7.1. Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnatni me'yorlash.Mehnatni tashkil etishning asosiy tamoyillari.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yangi texnika va texnologiyalar tez sur'atlarda tadbiiq etilmoqda.

Shuning uchun ham qishloq xo'jalik korxonalarining har bir xodimi, mutaxassisi, rahbari mehnatni tashkil qilishning umumiy tamoyillarini egallashi va uni o'z ishida qo'llay bilishi lozim.

Kelishib olish tamoyili. O'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mehnat jarayonlari o'tkaziladigan joy va vaqt kelishib olinadi.

Bir me'yorda ishlash tamoyilida ishning qizg'in davrlarida shoshqaloqlikka yo'l qo'ymaslik uchun xo'jaliklarning bo'linmalari texnika bilan yetarli qurollantirilsa, ish bir me'yorda borishi ta'minlanadi va mehnat jarayoni ancha unumli bo'ladi.

Mehnatda qoniqish tamoyili mehnat jarayonida asosiy va qo'shimcha ish haqi to'lash hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Uzluksizlik tamoyili. Mehnat predmetiga dastlabki bosqichdan to oxirgi bosqichga qadar uzluksiz kechiktirmasdan ishlov berishdan iborat ishlab chiqarish jarayonini eng to'g'ri uyushtirilgan jarayoni deb qarash mumkin. Garchand qishloq xo'jaligidagi ish davri o'z xarakteriga ko'ra mavsumiy bo'lsada, har qaysi mavsumda ish vaqti bekorga sarf bo'lmasligi, texnikaviy, texnologik xizmat ko'rsatkichining boshqa turlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar iloji boricha kam bo'lishi kerak.

Ixtisoslashtirish tamoyili. Shirkat va fermer xo'jaliklarida har qaysi mexanizatorga har yili bir xil texnologik jarayon (yer haydash, ekish, ekinlarni parvarish qilish, yetishtirilgan hosilni yig'ib- terib olish va hokazo) topshiriladi. Bunda uning tajribasi, malakasi, individual, fiziologik xususiyatlari (aniq harakat qilishi, mashina va sharoitning o'zgarishiga hozirjavobligi va shunga o'xshashlar) hisobga olinadi.

Yildan-yilga bir xil ishning doimiy takrorlanishi mexanizatorning ixtisoslashuviga yordam beradi. U mehnat qilishning ilg'or usullarini o'zlashtirib, mahoratini oshiradi, oqibatda eng kam kuch, mablag' va ish vaqti sarf-lab, zarur foydali natijalarga erishadi.

Proporsionallik tamoyili. Proporsionallikka mashina-traktor agregatlarini to'g'ri komplektlash orqali erishiladi. Bunda traktorning tortish quvvati bilan ish mashinalarining

qamrash kengligi o'rtasidagi proporsiyaga rioya qilish kerak. Masalan, yig'ib-terimga ishtirok etadigan mashinalar bilan transport vositalarining ish unumi o'rtasidagi soni bilan mexanizator-sozlovchilar soni o'rtasidagi aniq nisbat belgilanadi.

Sanoat tipidagi chorvachilik majmualarida va boshqa bo'limlarda, asosiy ishlovchi (operatorlar) bilan yordamchi ishlovchilar o'rtasidagi muvofiq proporsiyalarni aniqlab olish mumkindir.

Paralellik tamoyili. Ayni bir vaqtda turli ixtisoslikdagi ko'pchilik kishilarning qishloq xo'jalik ishlarini bajarishda ishtirok etishi ko'plab ish o'rinlari tayyorlashni, turli mehnat jarayonlari paralel bajarilishini uyushtirishni zarur qilib qo'yadi. Buning natijasida ishni muvofiq agro va zootexnikaviy muddatlarda bajarishga, mashinalarni ishga o'z vaqtida tayyorlashga mahsulotning to'kilishidan, sifat o'zgarishidan va hokazolardan keladigan zararlarni kamaytirish hisobiga kam mehnat sarflab, ko'p mahsulot olish imkoniyati yaratiladi. To'g'ri-aniq bajarish tamoyili yuklarni bir joydan ikkinchi joyga belgilangan vaqtda yetkazib berishdan iboratdir.

Mehnatni tashkil qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: ish joyida mehnatni oqilona tashkil qilish; mehnat sharoitlarini yaxshilash; mehnat qilish va dam olish rejimlarini tartibga solish; boshlang'ich ishlab chiqarish bo'linmalarini tashkil qilish.

Ana shu yo'nalishlardan eng asosiysi ish joyida mehnatni oqilona tashkil qilish hisoblanadi.

Umumiy tashkiliy masalalar har qancha yaxshi hal etilmasin, mehnatni oqilona tashkil qilish har bir ish joyini, har bir xodimni qamrab olmas ekan, yuksak ishlab chiqarish samarasi bo'lmaydi. Chunki shirkat va fermer xo'jaliklarida o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'langan ko'plab ish joylarining ma'lum darajali yig'indisi mujassamlashgan.

Ish joyi - bu kishi mehnat qiladigan, barcha zarur uskunalar va jihozlar bilan ta'minlangan hududdir. Masalan, shirkat xo'jaliklarida turli tarmoqlarda ish joyi o'z texnik tavsifi jihatidan bir xilda bo'lmaydi. Ular qo'l mehnatiga moslashtirilgan bo'lishi mumkin. Traktorchi-mashinistning ish joyiga u boshqarayotgan traktor kabinasidan tashqari, ma'lum darajada u ishlayotgan dala ham kiradi.

Rahbar ish joyida mehnatni tashkil qilganida ishlovchini tegishli uskunalar bilan ta'minlash, ish joyini oqilona ravishda rejalashtirish, uskunalarini qulay joylashtirishi, ish bajaruvchilarning ishida qulaylik tug'dirish, ularni tashqi muhitning zararli omillari ta'siridan saqlashi, mehnatning eng oqilona usullarini qo'llanilishi haqida g'amxo'rlik ko'rsatishi kerak.

Ish joyini oqilona rejalashtirish, uskunalar, asboblardan va moslamalarni eng qulay joylashtirishni talab qiladi.

Bu esa ortiqcha va qo'shimcha vaqt oladigan harakatlarni qilmasdan ishlash imkoniyatini ta'minlaydi.

Agar uskunalar, mehnat predmetlari, asboblardan qat'iy ma'lum bir tartibda hamisha bir joyda turadigan qilib joylashtirilsa, unda kishi harakatida ravonlikni vujudga keladi. Bu esa asabni asraydi va jismoniy kuch sarflashni qisqartiradi.

Fanda ish joyini rejalashtirish bilan bog'liq bo'lgan tavsiyalar, me'yorlar va qoidalar ishlab chiqilgan. Har bir bo'linma rahbarlarining vazifasi - ana shularni bilishdan, o'z korxonasi, o'z tarmog'i, alohida ishi, joyi aniq sharoitlarini hisobga olgan holda umumiy qoidalarni qo'llay bilishdan iborat. Bir xildagi hatto oddiy ishni bajarayotgan bir necha xodimning ishi diqqat bilan kuzatilsa, ish bir xilda bajarilayotgandek bo'lib tuyuladi, ammo bu xodimlarning har biri o'zicha mehnat qilayotganligini payqash mumkin. Agar mehnat jarayoni butun holda emas, balki uning ayrim dastaklari (usullar va harakatlar) bo'yicha olib qaralsa, unda bu faqat yanada ravshanroq

ko'zga tashlanadi. Mutlaqo bir xilda harakat qiladigan hatto ikkita xodimni ham topish qiyin. Mehnat unumdorligidagi farq ham katta bo'ladi. Bunda ijrochilarning jismoniy ko'rsatkichlari va yoshigina emas, balki mehnatning turli usullarini qo'llanishi ham katta rol o'ynaydi.

Ishlashni bilish tug'ma xislat emas, unga o'rganish mumkin. Xo'jalikdagi bo'limlarning rahbarlari va mutaxassislari xodimlarni ilg'or ish usullariga o'rgatishda katta rol o'ynashlari kerak. Turli malakaga, turli ish mahoratiga ega bo'lgan kishilar ularning ko'z o'ngida, ularning rahbarligi ostida mehnat qiladilar. Brigadirlar, bo'lim boshliqlari, fermer xo'jaliklari rahbarlari bir xildagi ishning turli usullarda bajarilishini doimo kuzatib borib, ulardan eng oqilona usullarni tanlab olish va ularni barcha xodimlarga o'rgatish imkoniyatiga egadirlar. Tajriba shuni ko'rsatadiki, mehnatning

eng oqilona usullarini o'rganishga va yoyishga katta e'tibor beriladigan joylarda zo'r iqtisodiy samaraga erishiladi.

Ishlab chiqarish tashkilotchisining vazifasi - ilg'orlarning ish uslublarini hammaga o'rgatishdan, boshqalar qo'llaydigan barcha yaxshi usullarni o'rgana bilishdan iborat. Hozirgi zamon fani va ilg'or tajriba mehnatning eng yaxshi usullarini aniqlashning maxsus usullarini ishlab chiqqan. Ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish, uni alohida operatsiyalarga, harakat va mehnat usullariga bo'lib o'rganish bunga asos qilib olingan. Bo'linmalarning rahbarlari va mutaxassislari har bir ishni uni tashkil qiluvchi elementlardan ajratib, ana shu elementlardan har birini bajarishning eng yaxshi, eng tejamli usullarini, so'ngra esa butun mehnat jarayonining eng yaxshi usullarini aniqlab olishlari mumkin. Tashqi muhit sharoitlari kishi organizmiga, uning fiziologik faoliyati va ruhiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kishilarning ish qobiliyati, binobarin, mehnat unumdorligi ko'p jihatdan mehnat sharoitlariga bog'liq. Mehnat sharoitlari kishining o'z ishidan qanoat hosil qilishini ko'p jihatdan belgilaydi.

Qishloq xo'jaligida mehnat sharoitini yaxshilash ayniqsa muhimdir. Bu sohada ko'p ishlar ochiq havoda va mikroiklim sharoitlari (harorat, namlik, gazning ko'p miqdorda bo'lishi va hokazo) har xil bo'lgan binolarda amalga oshiriladi.

Xo'jaliklarda mehnat sharoitlarini yaxshilashning asosiy yo'llaridan biri tashqi muhitning noqulay va zararli omillarini yo'qotishdan iboratdir. Bunga: binolarda muvofiq mikroiklim sharoitlarini vujudga keltirish va avvalo havoning me'yoriy haroratini va uning namligini ta'minlash; yoritishni yaxshilash, professional xavf va zararlarga qarshi kurashish; ish binolarida umumiy tartib va tozalikni yaxshilash va hokazolar kiradi.

Mexanizasiya yordamida bajariladigan dehqonchilik ishlarini me'yorlash xususiyati o'ziga xosdir.

Ma'lumki, mexanizasiyalashtirish fan-texnika taraqqiyotini asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dehqonchilik ishlarini mexanizasiya yordamida bajarishdan maqsad og'ir ishlarni mashina zimmasiga yuklash, qo'l mehnatini qisqartirish, mehnat unumdorligini oshirishga erishishdir.

Mexanizasiya darajasi 3 ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- qisqa mexanizasiyalash ishlari;
- majmuaviy tarzda mexanizasiyalashgan ishlar;
- avtomatlashgan ishlar.

Hozirgi vaqtda dehqonchilik tarmog'ida mexanizasiya yordamida bajariladigan ishlarning darajasi taxminan 80% ni tashkil etadi.

Mexanizasiya yordamida bajariladigan ishlarni me'yorlash quyidagi xususiyatlarga ega: -mehnat predmeti, tuproq, o'simlik, ko'chat bo'lib, ular doimo o'zgarib turadi;

- bir smena davomida agregat mobil holda (doimo harakat holatida) bo'lib, bir necha km.

masofani bosib o'tishiga to'g'ri keladi;

-mexanizasiya vositalaridan yil davomida foydalanish muddati har xil. Masalan, pluglar bir yilda 140-160 soat, kultivatorlar 200-300 soat seyalkalar 120-140 soat, terim kombaynlari 300-400 soat va traktorlar 1500-3000 soat ishlatiladi.

Mexanizasiyalashgan dehqonchilik ishlarini me'yorlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular birinchidan, mehnat me'yorlari metr/kub, metr/kv. gektar va pogon metr o'lchovida aniqlanadi. Ikkinchidan, mehnat me'yorlari smena (ish kuni) uchun belgilangani bois bajariladigan ish birligiga nisbatan yonilg'i me'yori ham bir paytda aniqlab beriladi.

7.2. Mehnat me'yorlariga ta'sir etuvchi omillar va ularning samaradorligini aniqlash usuli

Dehqonchilik ishlarini mexanizasiya vositalari yordamida bajarishda mehnat me'yorlariga tashkiliy-texnologik va tabiiy sharoitlar ta'sir etadi.

Mehnat me'yoriga ta'sir etuvchi omillar, o'z xususiyatiga ko'ra, doimiy va o'zgaruvchan bo'ladi.

Doimiy omillarga xo'jalikning yer sharoitlari, tuproqning fizik, ximik tarkibi, maydonlarning uzunligi, kengligi, mashinalarning solishtirma qarshiligi, mahalliy tabiiy sharoitlar, yerlarning baland-pastligi, nishabi, tekisligi, tosh-shag'alilik darajasi va boshqalar kiradi.

O'zgaruvchan omillar tashkiliy sharoitlar, mehnatni tashkil etish shakllari, ishni 1,5-2 smenada tashkil etish sharoiti, yerga ishlov berishda uning chuqurlik darajasi, 1 gektar yerga urug'lik va mineral o'g'itlar me'yori, sug'orish me'yori, qator oralig'ining kengligi, hosildorlik darajasi, tuproqning namlik darajasi kabilarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni, mexanizatorlarning mehnat va dam olish sharoitini, haq to'lash hamda sanitariya- gigiyena sharoitlarni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Mexanizasiya ishlarini bajarishda bevosita mehnat me'yoriga quyidagi omillar ta'sir etadi.

Traktorga tirkaladigan ish organlarining qamrov kengligi. Odatda, qamrov kengligi ikki xil bo'ladi:

A) konstruktiv qamrov kengligi. U zavod tomonidan texnikaning pasportida belgilanadi. Masalan, pluglar uchun bu koeffitsiyent 1,04-1,10 gacha, kultivatorda 0,96- 0,97 ga, seyalkalarda 1 ga teng.

B) Mehnat me'yorlarini belgilashda bevosita ish kengligini aniqlash eng to'g'ri usul hisoblanadi. Bu ish kengligi uch xil usulda aniqlanishi mumkin.

1. Qamrov kengligi asosida.

$$V_r = V_k \times K \times n \quad (7.1)$$

bu yerda:

V_r - ish organlarining u yoki bu ishni bajarishda haqiqiy qamrov kengligi (m);

V_k - ish bajaruvchi mexanizasiya vositasining zavod tomonidan pasportida belgilangan qamrov kengligi (m);

K -konstruktiv qamrov kengligidan foydalanish koeffitsiyenti;

n - agregatdagi ishlovchi organlar soni.

$$V_r = 0,35 \times 1,10 \times 6 = 2,31 \text{ m.}$$

2. Agregat muayyan ishni bajargandan so'ng u ma'lum vaqt ichida bajargan umumiy ish hajmini borib kelish soniga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi.

Masalan, agregat umumiy uzunligi 60 m. bo'lgan kenglikdagi ishni bajardi. Bunda tegishli masofaga 25 marta borib keldi. Demak, agregatning qamrov kengligi $60/25 = 2,4$ metrga teng.

3. Ikki qoziq belgisi yordamida aniqlash. Bunda mehnat jarayonini amalga oshirishga kirishishdan avval, birinchi qoziq belgisi ish organining tashqaridagi chegarasiga qoqiladi,

ikkinchi qoziq belgisi ishlov beriladigan tomonga qarab 10-15 m. masofaga o'rnatiladi. Agregat yurib ketgach, ikkinchi qoziq belgisidan ishlov berilgan joy chegarasigacha o'lchanadi, o'rtadagi farq orqali ish organlarini qamrov kengligi haqidagi ma'lumotlar aniqlanadi.

Masalan, ish boshlanishidan avval agregat ish organlarining tashqi chegarasiga o'rnatilgan birinchi qoziq bilan ikkinchi qoziq oralig'i 15 m. bo'lsin, agregat yurib ketgandan so'ng ikkinchi qoziqdan ishlov berilgan chegaragacha o'lchanganda, u 12 m. ni tashkil etgan. Demak, qamrov kengligi 3 m. ga teng (15 m. - 12 m. q3m).

Mehnat me'yoriga ta'sir etuvchi ikkinchi omil agregat bir soat davomida necha km. masofani o'tish imkoniyatiga egaligiga qarab hisoblanadi (ish tezligi km. soat).

Uni aniqlash uchun bir necha almashlab ekish dalalarining uzunligi aniqlanadi. Misol tariqasida keltirayotgan 3 ta almashlab ekish dalasining belgilari quyidagicha bo'lganligini keltirish mumkin.

Uzunligi bo'yicha:

1-dala- 450m;

2-dala- 380m;

3-dala- 310m;

Kengligi bo'yicha:

1-dala- 200m;

2-dala- 160m;

3-dala- 110m;

Dalalarning o'rtacha arifmetik uzunligi

$$(450+380+310):3=380m$$

Demak, 3ta almashlab ekish dalasining o'rtacha uzunligi 380m. Shundan so'ng, kuzatish davrida agregat necha marotaba borib kelganligi aniqlanadi. U 60 marotaba borib kelgan:

$$380 \times 60 = 22800m.$$

Olingan ma'lumotni kuzatish davridagi asosiy vaqt sarfiga taqsimlash yo'li bilan agregatning ish tezligi aniqlanadi:

$$22800 : 5 = 4560m/soat=4,56 \text{ km/soat}$$

Asosiy mehnat me'yoriga ta'sir etuvchi omil bu qanday mehnat jarayoni bajarilishidan qat'iy nazar, uni bajarishdagi asosiy vaqt sarfi hajmi hisoblanadi (T asos). Uni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

Ilmiy asoslangan mehnat me'yorlarini iqtisodiy samarasi u yoki bu mehnat jarayonidagi vaqt sarfini va haq to'lash fondini qisqarishi, joriy etilgan me'yor bilan ilgari qo'llangan me'yorlarni taqqoslash orqali aniqlanadi. Bunda quyidagilardan foydalaniladi:

$En = Or \cdot (Zj - Zi)$ (7.3) bu yerda:

En - bajariladigan ish birligiga nisbatan mehnat sarfi va haq to'lash fondini tejalganlik ko'rsatkichi;

Or - istiqbolda bajariladigan ish hajmi (ga);

Zj - ish birligiga nisbatan hozirgi vaqtda mehnat sarfi ko'rsatkichi (kishi. soat/ga);

Zn - istiqboldagi yillar uchun ish birligiga vaqt sarfi (kishi. soat/ga).

Masalan, shirkat xo'jaligida «T-4» traktori bilan 28 sm. chuqurlikda shudgorlanmoqda, 4000 ga shudgorlash kerak. Joriy yilda o'rnatilgan kunlik mehnat me'yori 6 ga, istiqbol yillari uchun 6.5 ga qilib belgilangan.

Agar joriy etilib kelinayotgan me'yor yordamida (6ga), xo'jalik uchun 666 me'yor-smena talab etilgan bo'lsa, istiqbol yillari uchun hisob-kitob qilingan me'yorni joriy etish evaziga 615 me'yor - smena talab etiladi. Demak, 51 me'yor-smena qisqaradi ($666 - 615 = 51$ ga).

Har me'yor-smenaga 500 so'm haq to'lanadi,
 $51.500 = 25500$ so'm tejaladi.

7.3. Traktorning tortish kuchiga agregatlarni qarshiligi va uni aniqlash uslubi.

Turli xil rusumdagi u yoki bu ishni bajarishda traktorlar ma'lum darajadagi tortish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Masalan, «DT - 75» rusumli traktor 75 ot kuchiga, «Kiroves» - 701» 300 ot kuchiga ega. Traktor o'zini va tirkalgan ish organlarini sudrab yurishi uchun ma'lum darajada energiya sarflaydi. Masalan, «DT-75» rusumli traktorni olib ko'raylik. Uning ish jarayoniga to'g'ri keladigan foydali tortish imkoniyati 55 —60 ot kuchini tashkil etadi, qolgan 15-20 ot kuchini traktor o'zini sudrash uchun sarf etadi.

Traktor agregati tuproq bilan to'qnashganda ma'lum darajada qarshilikka uchraydi. U shu qarshilikni yengil ba-

jarishi kerak. Agregatlarni tortish kuchiga qarshiligi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$R O'rt = AIM (7.4)$$

S

bunda:

R O'rt - agregatning o'rtacha qarshilik ko'rsatish imkoniyati kg;

A - traktorning tortish quvvati (kg);

S - bosib o'tilgan masofa (m).

Agregatlarning tortish kuchiga bo'lgan qarshiligi maxsus dinamometr - «RTTK-AFI» o'lchov asbobi yordamida aniqlanishi mumkin.

U ikkita o'lchagich (schetchik) ga ega, bittasi bosib o'tilgan masofani o'lchasa, ikkinchisi bajarilgan ishni belgilaydi. To'g'ri natijaga erishish uchun agregat 200 metrdan ortiq masofani bosib o'tishi shart.

7.4. Ishlab chiqarish me'yori va yoqilg'i me'yorini aniqlash.

Dehqonchilikda joriy etiladigan me'yorlarni me'yoriy qo'llanmalardan foydalanib yoki bevosita xo'jalikda kuzatishlar o'tkazilib, bu yerdagi sharoitlarni hisobga olgan holda eksperimental usuli yordamida o'rnatilishi mumkin.

Dehqonchilik ishlarida mehnat me'yorlarini belgilash bilan birga bajariladigan har bir ish birligiga nisbatan necha kg, yoqilg'i me'yori belgilash masalasi ham hal etiladi.

Mexanizasiya vositalarida bajariladigan ish unumdorligini oshirish maqsadida, albatta tirkaladigan ishchi organlarining har xil tezlikda harakatlanishini maqbul sonini aniqlash masalasi muhim ahamiyatga ega.

Traktorning har xil tezlikda harakatlanishi avval tuproqning og'ir-yengiliga, dala maydonlari miqdoriga, uzunligiga qator oralig'ining uzunligi, tuproqning solishtirma qarshiligi va traktorning tortish qarshiligiga bog'liqdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Qishloq xo'jaligida me'yorlash tushunchasi.
2. Me'yorlash ob'yektlari
3. Mexnatni tashkil etish deb nimaga aytiladi.
4. Mexnatni tashkil etish tamoyillari.
5. Mexnatni tashkil etish shakllari.
6. Mexnatni tashkil etishning asosiy vazifalari.

7. Mexnatni tashkil etishda ijara munosabatlari.
8. Ijara munosabatlarini tashkil etishda qaysi tamoyillarga amal qilish lozim.
9. Ijara munosabatining asosiy shartlari.
10. Ijara to'lovlari qanday o'rnatiladi.
11. Traktorlarning tortish kuchiga agregatlarni qarshiligi aniqlash.
12. Ishlab chiqarish meyorini va yoqilgi meyorini aniqlash.
13. Traktor agrigatining xar-xil tezlikda xarakatlanish davrida unga tirkaladigan ish organlarining maqbul sonini aniqlash tartibi.

Glossariy

ISH JOYI - bu kishi mehnat qiladigan, barcha zarur uskunalar va jihozlar bilan ta'minlangan hududdir.

DOIMIIY OMILLAR- xo'jalikning yer sharoitlari, tuproqning fizik, ximik tarkibi, maydonlarning uzunligi, kengligi, mashinalarning solishtirma qarshiligi, mahalliy tabiiy sharoitlar, yerlarning baland-pastligi, nishabi, tekisligi, tosh-shag'alilik darajasi.

O'ZGARUVCHAN OMILLAR- tashkiliy sharoitlar, mehnatni tashkil etish shakllari, ishni 1,5-2 smenada tashkil etish sharoiti, yerga ishlov berishda uning chuqurlik darajasi, 1 gektar yerga urug'lik va mineral o'g'itlar me'yori, sug'orish me'yori, qator oralig'ining kengligi, hosildorlik darajasi, tuproqning namlik darajasi kabilarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni, mexanizatorlarning mehnat va dam olish sharoiti.

MEHNAT - bu insonning biror bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyat bo'lib, u orqali inson o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat in'omlarini o'zgartiradi. Inson mehnati ikki yoqlama xarakterga ega: a) **KONKRET MEHNAT**- tovarning iste'mol qiymatini yaratadigan, biron bir aniq ko'rinishga ega bo'lgan mehnat turi tushuniladi. b) **ABSTRAKT MEHNAT**- tovar qiymatini yaratadi. «Abstrakt» (so'zi o'zbek tilida «mavhum» degan ma'noni bildiradi). Mehnat aniq shaklidan qat'iy nazar umuman sarflangan ish kuchidir, jami ijtimoiy mehnat sarfidan iborat bo'ladi.

ME'YOR - ilgari belgilanib qo'yilgan o'lchov, me'yor anglashiladi.

MEHNAT ME'YORI - vaqt yoki bajarilgan ish hajmi bilan o'lchanadi, soat, minut, sekund va ish kuni hisobida yoki ish birligi o'lchovida yuritiladi.

ISHLAB CHIQRISH NORMASI - ma'lum vaqt davomida (smena, soat, minutda) yetishtirilgan yoki ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilgan ish hajmini ifodalaydi. U tonna, km, sentner, gektar kabi birliklarda o'lchanadi.

VAQT NORMASI - yetishtiriladigan mahsulot yoki bajariladigan ish birligi uchun sarflanadigan vaqt miqdorini bildiradi. U soat, minut va sekundlar bilan o'lchanadi.

MEHNAT NORMATIVLARI - deganda esa, alohida amal(operasiya)larni bajarish uchun belgilanadigan norma birligi tushuniladi.

MEHNAT JARAYONI - deganda, ishlab chiqarish davridagi birorta ish turini bajarish uchun mehnat predmetiga bir tomondan, mehnat kuchining, ikkinchi tomondan, tabiatning ta'siri asosida amalga oshiriladigan jarayon tushuniladi.